



*Bu gulshan ichra yo'qdir baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.*

Alisher Navoiy



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY O'QUV-KUTUBXONA
MARKAZI

Tong

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2008-yil
4-fevral
N:6
(66651)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

*9-fevral – Alisher NAVOIY
tavallud topgan kun*



YIGITLIKDA YIG'ILMNING MAXZANI

Aziz o'quvchim, har yili 9-fevralda biz Alisher Navoiy bobomizga bag'ishlangan yig'inlar, majlislar, adabiy kechalar o'tkazamiz. Mustaqillikdan so'ng, Toshkent-u azimda Prezident bobongizning tashabbusi bilan qad ko'targan Alisher Navoiy Hazratlarining poylariga anvoyi gulchambarlar qo'yamiz. Bundan tashqari, mamlakatimizda bu zot nomidagi maktablar, o'quv yurtlari, ko'chalar va ilmiy dargohlarning son-sanog'i yo'q. Bular nimadan darak beradi? Demak, millat va ota yurt uchun xizmat qilgan hech bir zot unutilmaydi, esdan chiqarib yuborilmaydi.

Alisher Navoiy bobongiz qoldirgan meros – ulkan dengiz. Uning mavjlari ko'zni qamashtirib, dilni maftun etadi. Bu dengizning tubi shunchalik chuqur va toza, asl gavharlar shunchalik ko'pki, shu davrgacha hali hech kim ularni terib ulgurgan emas. Ularning har biriga to'la baho berishga yana qancha asrlar kerak, buni ham hali hech kim bilmaydi.

Dunyoda eng ko'p so'z ishlatgan va so'zga boy inson ham shu Hazrat bobongiz edi. Aytinch, shunday ulug' zotni tarbiya qilgan xalqni kim tan olmasligi mumkin?! Mana bu satrlarni o'qigan qaysi bir ota-ona yoki siz kabi o'g'il-qiz befarq qola oladi:

*Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kuningg'a aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.*

Yoki u zotning ustoz haqida aytgan quyidagi mashhur misralarini dunyodagi qaysi bir shogird tan olib o'qimasligi mumkin:

*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado aning haqin yuz ganj ila.*

Buyuk shaxslar, dunyoning mohiyatini tushungan odamlar mayda-chuyda gaplarni emas, insoniyatning baxt-saodatini o'ylashadi. Bu borada Hazrat bobomiz shunday yozganlar:

*Odamiy ersang, demagil odami
Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.*

Xo'sh, Alisher Navoiy bobongiz yoshlarga qarata nimalar deganlar?

*Yigitlikda yig'ilmning maxzani,
Qarilik chog'i xarj qilg'il ani.*

Sharq ilmini o'rgangan g'arb olimlari uni o'zlari uchun eng sirli va eng jozibali dunyo deb bilganlar. Haqiqatan ham shunday. Bunga birgina Alisher Navoiy bobongizning ijodiy merosi namuna bo'la oladi. Siz ham, aziz o'quvchilar, suyukli yoshlar, bu ulkan ummon, buyuk dengizdan bahra olsangiz, hayot yo'lingiz charog'lanishib, umringiz bahor gullaridek yashnaydi. Zero, Hazrat bobongizning o'zlari «Er kishiga zeb-u ziynat hikmat va donishdur», deb behudaga aytmaganlar.

O'z muxbirimiz

Biz bu yil «Yoshlar yili» munosabati bilan ulug' shoir bobongizning tavallud kunlarida gazetamiz sahifalarini Toshkent san'at litseyi yoshlariga ishonib topshirdik. Ular keng fikrlaydigan, yurtni qadrlaydigan yigit-qizlar, bilimdon o'quvchilardir. Siz ham ularning Alisher Navoiy bobomiz haqidagi o'y-fikrlari bilan tanishing. Bu to'g'rida bizga albatta yozib yuborishni unutmang. Siz ham shunday sahifalarni tayyorlamoqchi bo'lsangiz, takliflaringizni kutamiz.

Keyingi sonlarda:

1. Mana buni yangilik desa bo'ladi: Maftuna Saidova qariyalar uchun universal hasna ixtiro qildi. Bizni kuzatib borsangiz, bu haqda bilib olasiz!
2. Garri Potter sarguzashtlarining davomini o'qiysiz.

Qadrli o'quvchilar! Siz Qahramon Quranboyevni yaxshi bilasiz-a? Chunki u yoshlarning eng yaqin do'sti, maslahatchisi. Bir paytlar u ham siz kabi o'quvchi edi. Bugun esa «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari, Pedagogika fanlari nomzodi.

Hozirda «Boshqaruv tizimida kadrlar siyosati» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlash arafasida.

Qahramon Quranboyev Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi aniq fanlarga ixtisoslashgan al-Xorazmiy nomli 120- maktab-internatida ta'lim-tarbiya oldi. 7-sinfda o'qib yurgan damlaridayoq ustozlariga havas qilib, ular boshchiligida boshlang'ich sinflarga dars berdi. 8-sinfda esa maktabning yoshlar tashkilotiga rahbarlik qildi. Talabalik yillarida esa 13 nafar nomzodlar orasidan (ToshDU, hozirgi O'zMU) yoshlar tashkilotiga uning nomzodi loyiq deb topildi.


Qahramon Quranboyev bolaligidanoq xalqimga foydam tegsa, degan ulug' niyat bilan yashagan. Shifokor bo'lish esa uning orzusi edi. Biroq, taqdir yo'llari uni shifokorlikka tanlamadi. Ammo uning insonlarga shifokor bo'lib emas, hozirda olim, yoshlar tashabbusining qanoti bo'lib yordami tegayotgani shubhasiz...



DUNYO YOSHLAR BILAN GO'ZAL

KAMOLOT

Bugungi kunda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining 14 ta viloyat, 199 ta tuman (shahar) bo'limlari Kengashlari, 17 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 7 mln.dan ortiq yoshlarning 4 mln. 700 ming nafari yoki 65,3 foizi Harakat a'zolari bo'ldi. Harakat tizimlarida 1200 nafar yoshlar faoliyat yuritmoqda.



– Avvalo, «Yoshlar yili» barchamizga muborak bo'lsin! Ushbu yilda yoshlarimiz nafaqat kuzatuvchi, balki o'zlari bevosita har bir jarayonda ishtirokchi, ya'ni jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni amalga oshirishda quruvchi sifatida ishtirok etadilar, deb o'ylayman.

Yoshlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeining tobora ortib borishi mamlakatimiz uchun xos xususiyatdir. Ularda yangicha dunyoqarash, demokratik tafakkurga ega bo'lgan yoshlarning yangi avlodi shakllanayotgani quvonarlidir.

Ular bilimdon, iste'dodli. Gohida bergan savollariga javob topishga shoshilib qolamiz. Davlatimiz tomonidan iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Iste'dod» jamg'armasi, Prezident stipendiyasi, A.Navoiy, Beruniy, Ulug'bek nomli Davlat stipendiyalari, «Nihol», Zulfiya nomli Davlat mukofotlari ta'sis etildi. «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni Nizomiga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, ushbu mukofot yoshlarga

beriladigan bo'ldi.

Shuningdek, «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiqlar bayrami, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» kabi sport musobaqalari tashkil etildi.

«Kamolot» – bizga qanot!

Ayniqsa, yoshlarning chet el ta'lim muassasalarida o'qishlari, malakalarini oshirishlari, ishlashlari, xalqaro sport va boshqa musobaqalarda, tanlovlar, Olimpiadalarda O'zbekiston nomidan ishtirok etishlari uchun sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu borada yoshlarning ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, sport va harbiy vatanparvarlik kabi sohalarda ishtirok etib, uning rivoji uchun o'z hissasini qo'shib kelayotgani yuqoridagi tadbirlar mevasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Qomusimizning 15 yilligiga bag'ishlangan tadbirda so'zlagan nutqlarida «Yoshlar yili»da o'z yechimini kutayotgan va e'tibor talab juda ko'pgina yoshlar muammolarini ko'tardilar. Biz ham ana shu muammolarga chuqurroq nazar tashlashni

va tahlil etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.


Birinchi navbatda farzandlarimiz qalbga yaxshilik urug'larini sepishimiz darkor. Ularning diydasini qotiradigan turli o'yinlardan, ayniqsa, kompyuter o'yinlaridagi vahshiyliklardan, qo'rqinchli, vahimani kinofilmlardan himoya qilishimiz kerak. Vaholanki, ko'pgina mamlakatlar bu kabi o'yin-u kinofilmlardan farzandlarini asramoqda.

Shuningdek, milliylik ruhida multfilmlarni yaratish, «Mahalla – maktab – «Kamolot» hamkorlik Konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish kabi masalalar bugungi kunda diqqat-e'tiborimizda.

Bu boradagi barcha ishlarimizga intiluvchan, qiziquvchan, iqtidorli, bilimdon yoshlarning o'zi yordam beradi. Ezgulik hamisha hayotda o'z so'zini isbotlab kelgan. Shuning uchun ham dunyo yoshlar bilan, ularning ibratli ishlari bilan go'zal.

«Kamolot» bag'rida o'sib tarbiya topayotgan iste'dodli bolalar bilan hamfikir, hamnafas bo'lib ishlayotganligimizning o'zi katta baxt.

Feruza SOYIBJON qizi yozib oldi



O'qi, bu qiziq!

915 ming kishi yashaydi.

Eng aholisi ko'p shahar esa Tokio bo'lib, bu yerda 2000-yilgi ma'lumot bo'yicha 26,4 million kishi istiqomat qiladi.

* * *

Ilm olishning chegarasi yo'q. Biz arxeologiya – q a d i m s h u n o s l i k,

antropologiya – odam haqidagi, etnografiya – xalqlar sasnifi, etnologiya – elshunoslik fanlari ekanligini yaxshi

bilasiz. Lekin xronologiya – vaqt haqidagi, metrologiya – o'leov haqidagi, geneologiya – shajara haqidagi, epizrafika – bitiklarni o'rganuvchi, geraldika – tamg'alar haqidagi, sfarastika – muhrlarni o'rganuvchi, polegrafiya – qadimgi yozuvlar haqida, numizmatika – tangashunoslik fanlari ekanligini ko'pchilik ham bilmasa kerak.

* * *

Odatda kundalik o'zaro muomala uchun o'rtacha 3 mingtacha so'z ishlata ekanmiz. Lug'at boyligimiz esa 20 ming so'zdan iborat ekan. Ruhshunoslarning fikricha, so'z boyligi ko'p odamlar hayotda nihoyatda omadli insonlar ekan.

* * *

Eng qadimiy yozuv iyeroglif belgilardan iborat bo'lib, miloddan avvalgi 4 ming yillikda Misr va Mesopotamiyada yuzaga kelgan.

Harfiy yozuv miloddan avvalgi ikki ming yillik oxiri va bir ming yillik boshida G'arbiy Osiyo (Oromliy yozuvi) va Old Osiyoda (Finikiy yozuvi) paydo bo'lgan.

Ilk bor fotoapparat 1986-yili «Kodak» firmasi tomonidan professional foto-ustalar uchun mo'ljallab, yangi rusumdagi kamera yaratildi. Ushbu qulaylik tufayli fotoplyonkali kameraga ehtiyoj kamaydi.

* * *

Birinchi mobil qo'l telefoni 1983-yilda «Motorola» kompaniyasi tomonidan yaratildi. O'shanda «Dyna TAC 8000x» uyali telefon apparatining og'irligi salkam bir kilo bo'lgan.

* * *

Dunyoda eng aholisi ko'p mamlakat Xitoydir. Bu mamlakatda 2001-yil hisob-kitoblarga qaraganda, 1 milliard 274 million

BOLALAR UCHUN TELEFON

Yaponiyaning «En-ti-ti DoKoMo» Korporatsiyasi bolalarga mo'ljallangan uyali telefonni ishlab chiqardi. «FOMA F001» rusumli mazkur telefon suvga tushib ketsa ham, hech nima qilmaydi. Telefonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bola biror falokatga yo'liqsa, avtomatik ravishda uning yaqinlariga bu haqda xabar beradi.

SHODIYONAGA AYLANIB KETADI

Buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud topgan kunlari har yili maktabimizda katta shodiyonaga aylanib ketadi. Bu yil bu tantanani har yilgidan boshqacharoq o'tkazishga qaror qildik. Tadbir rejasi til va adabiyot o'qituvchimiz Shozoda opa Jabborova boshchiligida maktab uslub birlashma yig'ilishida ishlab chiqildi.

Rejamizdan fevral oyining birinchi o'n kunligida Navoiy va Boburning g'azal va ruboiylaridan yod olish va mushoira o'tkazish; ikkinchi yarmida bobokalonlarimizning asarlari yuzasidan rasmlar chizish va ular haqida turli janrda ijod namunalarini tayyorlash;

uchinchi o'n kunlikda esa ularning hayot yo'llari va ijodi haqida referatlar tayyorlash o'rin olgan.

Men ham boshqa sinfdoshlarim singari bu yo'nalishlar bo'yicha olgan bilimim va iqtidorimni sinab ko'rmoqchiman. Fevral oyining so'nggi kunlarida rejamizning yakuniga bag'ishlangan «Nazm va navo» kechasi bo'lib o'tadi. Alisher Navoiy va Boburni madh etish bilan birga, yuqoridagi reja asosida o'quvchilar orasida bellashuv bo'lib o'tadi. G'olib o'quvchilar maktab ma'muriyatining esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

Dilxushbonu HAMROYEVA,
Qarshi tumanidagi
43-maktabning 9-sinf o'quvchisi

Abdulla ORIPOV

ALISHERNING ONASI

Bilmam, qanday ayol bo'lgan,
Alisherning onasi.
Balki uning aqliga ham,
Lol qolgan zamonasi.

Balki uning ko'zlarida,
Bo'lgan og'ir bir xayol.
Balki g'amgin bir zotdir u,
Balki sho'xchan bir ayol.

Balki buyuk farzandiga,
Terib kelgan chechaklar.
Balki tunlar unga bedor,
Aytib bergan ertaklar.

Mayliga, u kim bo'lmasin,
Yolg'iz bir so'z ma'nosi:
Alisherning onasi u,
Navoiyning onasi.

BOBOMIZ

HIKMATLARIDAN:

Har nafasing holidan ogoh bo'l,
Balki anga xush ila hamroh bo'l.

* * *

Chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z
– muxtasar.

* * *

Befoyda so'zni ko'p aytma va
foydalig' so'zni, ko'p eshiturdin
qaytma.

* * *

Yaxshilig' qila olmasang, yomon-
lig' ham bore qilma.

To'plovchi: Jamshid
HAKIMOV,
Farg'ona viloyati,
9-sinf o'quvchisi



Erkin VOHIDOV, xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni: – Har bir narsaga yoshlikdan ko'nikma hosil qilish kerak bo'lganidek, Navoiyni o'rganishga ham qancha erta bel bog'lansa, shuncha ma'qul.

INSON QADRI HAR NARSADAN ULUG'

Bilamizki, bobomiz Alisher Navoiy 2 mingdan ortiq savobli ishlarni amalga oshirganlar, o'z hayotlarini xalq hayotidan bir soniyaga ham ayro tasavvur qilmaganlar.

NAVOIY ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA

Fazilat shior amirning e'tibor va iqtidori qudratli podshoh huzurida kundan kunga ziyoda bo'lib, ahvol shu yerga borib yetdiki, barcha turk-u tojikning saranjomligi, yaqin-u yiroq saranjomligini muhim ishlari uning savodnoma ixtiyoriga topshirildi.

MIRXOND

To qiyomatgacha va qiyomatda ham ulug' Hazratning yaxshi ishlari va yoqimli tillarining zikri zamon sahifalarida, kecha-yu kunduz varaqlarida mangu qolur.

XONDAMIR

Alisherbek tenggi yo'q kishi edi, turkiy til bilan she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas.

BOBUR, «Boburnoma»dan

Ma'mura MASHARIPOVA,
Toshkent viloyati, 8-sinf o'quvchisi



KULIB TURIBDI QUYOSH YUZIMGA QARAB...

Kulib turibdi quyosh yuzimga qarab,
Yulduzlarga kuylar oy sochini tarab,
Samo-chi? Musaffo sokin boqadi,
Daryo va dengizlar toshqin oqadi.
Atrofga qarayman va birdan menda,
Qalbimda bir tuyg'u tug'ilar shunda.
Bu tuyg'u meni oshno etadi,
Butun vujudimga tarqab ketadi.
Bu tuyg'u olamni bayon qiladi,
Meni o'z dardiga sherik biladi.
Bu ulug' ajdodlar yaratgan she'rdir,
Muallifi bobom Mir Alisherdir.

Maftuna TAYLANOVA,
Toshkent viloyati, 6-sinf o'quvchisi

SHE'RIYATGA BORMI KERAGIM?

Qalam yonar mening go'limda,
Ajdodlardan so'rayman madad.
Bobom kelar mening yonimga,
Dardlarimga sherikdir faqat.

Navoiydan bir so'z eshitib,
Duk-duk etib urar yuragim.
Bitta qalam, bitta she'r bilan,
She'riyatga bormi keragim?!

Navoiydek bo'lish ming mehnat,
Navoiyni bilish bir dunyo.
Elga navobaxsh bo'lay faqat,
Xayollarim bo'lmasa ro'yo.

Tursunpo'lat EGAMOV,
Samarqand viloyati, 8-sinf o'quvchisi

(Davomi 4-betda.)

Xirot — ijodkorlar maskani

Tariximizning «kirlik, qora kunlari» (A.Qodiriy) bo'lganidek, nurli va yorug', iftixorga to'la kunlari, davrlari ham ko'p bo'lgan. Husayn Boyqaro zamonini muarrixlar «oltin davr» deyishadi. Uning qirq yilga yaqin saltanatlik davrida mamlakatni boshqarishda adolat posboni, savob ishlar peshvosi, qurilish, obodonchilik ishlarining homiysi — Alisher Navoiy yaqindan ko'mak berib turgan. Husayn Boyqaroning o'zi ham atrofida minglab ijodkorlar borligidan faxrlangan. Menimcha, ijodkorni yuzaga chiqarishda muhit-sharoitning o'rni beqiyos. Navoiyning quyidagi baytida badiiy ijod gullab-yashnagan Xirot adabiy muhiti ko'zda tutilgan bo'lsa, ajab emas:

Xamul yerda gul termak emas xub,

Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p.

Farhod BURXONOV,

Samarqand viloyati, 7-«A» sinf o'quvchisi

EL KORIGA YARAGAN SHOIR

Oybekning «Navoiy» romanini o'qiganimda, Navoiy haqidagi filmlarni ko'rganimda, Xondamirning «Makodim ul-axloq» kitobini o'qiganimda, shuni anglab yetdimki, mutafakkir shoir o'z umrini yurt hayotidan ayro tasavvur qilmagan ekan. Ul zot xalq ichida yashab, odamlar tashvishini o'z tashvishidek ko'rgan. El-yurt koriga yarashni odamiylikdan deb bilgan. Buni tushunmagan va xohlamagan insonni baxtsiz deb hisoblagan:

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,

Ahvolida idbor nishoni bil oni,

Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,

Olam elining yomon yomoni bil oni.

Hasan OTAQULOV,

Navoiy viloyati, 8-«A» sinf o'quvchisi

HIKMATDA SIR KO'P

Ota-ona qadrini, mehrini, haqqini unutmoqlik — insonlik sha'ni, nomidan kechish degani. Navoiyning «Nazmul javohir» asarida ota-onani ulug'lash haqida ikkita hikmatga duch kelamiz. To'g'rirog'i, Hazrati Ali hikmatining she'riy izohini ko'ramiz. Unda «Otangga rioyat qil, bolangdan qaytadi», deyishadi. Navoiy ruboiysida bu shunday ifoda etiladi:

Farzand ato qilgin shu odat qilgay,

Ul odat ila kasbi saodat qilgay.

Har kimki atog'a, ko'p rioyat qilgay,

O'g'lidin bu ish anga siroyat qilg'ay.

Otaning hurmatini joyiga qo'yib, duosini olmoq kerak. Darhaqiqat, ulug'larning o'gitlarida juda katta ma'no, hayotiy saboq bor.

Jahongir ABDUKARIMOV,

Farg'ona viloyati, 8-«A» sinf o'quvchisi

«AJAB SAODAT»

Hadislardan va hikmatlardan ma'lum bo'ladiki, inson umri davomida qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishi kerak. Agar yaxshilik qilish qo'lidan kelmasa, yomonlik ham qilmasligi kerak. Chunki yaxshilik odamni insoniylik rutbasida saqlaguvchi xislatdir.

Har kishikim topsa davron ichra joh-u e'tibor,
Kim aning zotida bedod-u sitam bo'lg'ay qilg'.
Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa,
Kim yomonlig' qilmasa, qilg'ancha bordur yaxshilig'.

Yaxshilikning qadri Hazrat Navoiyning bir fardida ajoyib tarzda ifodalanadi:

Bu gulshan ichraki yo'qtur, baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot.

Shahnoza YUSUFALIYEVA,

Toshkent viloyati, 9-«A» sinf o'quvchisi



Qutlov

MANZILGA SHOSHGAN MAKTUBLAR



— Assalomu alaykum, Vasila opa, yaxshimisiz?
— Har galgidek ishga barvaqt kelibsiz, — deya birin-ketin hol-ahvol so'rashganimizda, opamizning qo'lida bir dasta «Gulxan»jonga kelgan xatlar uyumi bo'ladi. Biz bilan salom-alikni qisqagina qiladilar-da, yurtimizning har go'shasidan tahririyat tomon shoshgan xatlar bilan tanishishga oshiqadilar.

36 yildirki, Vasila opa «Gulxan» jurnalida faoliyat yuritadilar. Har bir maktub ortida sizlarning beg'ubor fikr va mulohazalaringiz, taklif va istaklaringizni yurakdan his etib, xatlar orqali siz bilan tanishadilar. Ularni jurnal sahifalariga tushirguncha yelib-yuguradilar.

Bundan tashqari, ular jamoat ishlarida ham faol. Vasila opa «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi Kasaba uyushmasi raisi o'rinbosari vazifasini a'lo darajada bajaradilar.

Bolalar uchun o'tkaziladigan tadbirlar deysizmi yoki tahririyatlarning keksa avlodlari bilan uchrashuv deysizmi, barchasida bosh-qosh. O'z vazifasiga sidqidildan yondashadigan Vasila opangizni hamma birdek yaxshi ko'radi. Axir ular har bir xodimning quvonch va tashvishlariga sherik bo'ladilar-da.



Mehnat qilgan elda aziz. Vasila opangizning mehnatlaridan so'zlab, bugun ularning ko'ksini «Shuhrat» medali, «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bezab turganini ham aytish mumkin.

Bugun Vasila Po'latova ulug' yoshda. Ularni tavallud ayyomi bilan qutlab, tahririyat tomon shoshib kelayotgan xatlar karvonining adog'i cheksiz.

«Tong yulduzi» jamoasi va uning minglab o'quvchilari nomidan jonkuyar, fidoyi hamkasbimizga qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, deymiz.

«KELAJAK TONGI»

SAHIIFAMIZ

MEHMONI

Aziz o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, «O'zbekiston» teleradiokanalining Bolalar va o'smirlar bo'limi qoshidagi «Kelajak tongi» eshittirishi haqida surat-lavha e'lon qilib, gazetamizning navbatdagi sonlaridan birida bu eshittirish haqida batafsilroq ma'lumot berishga va'da bergandik. Ishonchimiz komilki, mazkur eshittirishni maroq bilan tinglab borasiz. Uning boshlovchilari bilan yaqinroq tanishishni istasangiz, so'zlariga bir quloq tuting-a:



Qamariddin SHAYXOV:

– «O'zbekiston» teleradiokanalining Bolalar va o'smirlar bo'limi qoshidagi «Kelajak tongi», «O'smir», «Katta tanaffus» nomli eshittirishlarida boshlovchilik qilyapman. Rejissyorimiz Durdona Abdullayeva, muharrirlarimiz Nasiba Ziyovuddinova, Muattar Usmonova, Rohila Yusupova, Dono Zohidova, Halima Muhammadsaidova, Yusufjon Xayrullayev, Shokirjon Siddiqov, Jamshid Rasulovlarning ko'maklari, bizga bo'lgan mehrlari bois qaytadan tilim chiqdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Ular biz yosh boshlovchilarga har bir gapni emas, har bir so'zni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishadi. Bizlar tayyorlayotgan o'n besh daqiqalik eshittirishlar ortida qanchadan-qancha fidoyi insonlar mehnati, zahmat yotishini mana shu dargohda tushunib yetdim.

Bolaligimda «Mening ikki onam bor» yoki «Mening ikki uyim bor» kabi jumlar qatnashgan she'rlar, hikoyalarni o'qisam, ma'nosini tushunolmasdim. Inson qay bir makonga mehr qo'ysa, o'sha yer uning ikkinchi uyi, u yerdagi samimiy, bag'rikeng insonlar esa ikkinchi oilasidek bo'lib qolishini ham aynan mana shu tabarruk dargohda anglab yetdim.

Bu yerga kelganimdan buyon juda ko'plab yutuqlarni qo'lga kirityapman. Xususan, «O'zbekiston» teleradiokanali va «YUNISEF» bolalar tashkiloti hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan o'tkazib kelinayotgan tanlovlarda ishtirok etib, o'z bilim va mahoratimni sinash imkoniga ega bo'ldim. «Yoshlar yili»da «Kelajak ovozi» yoshlar mega-tanlovida ishtirok etmoqchiman.

Mahmudjon AZIMOV, O'zbekiston milliy universiteti qoshidagi akademik-litsey o'quvchisi:

– «Kelajak tongi» studiyasining eshittirishlarini 5-sinfda o'qib yurgan kezlrimdan boshlab olib boryapman. Chunki kichikligimdan radioboshlovchilikka havas qilardim. Ukam va singlim bilan boshlovchilarning ovozlarini magnitofon lentasiga yozib olib, keyin o'zimizni

mahoratli radioboshlovchilardек his qilib, «efir olib borardik». Bu albatta bolalik o'yinlari edi. «Kelajak tongi»ga kelganimdan keyin bolalik orzuim qat'iy maqsadga aylandi. Endilikda do'stim Akbar bilan birga to'g'ridan-to'g'ri efirda eshittirishlar, «Kelajak tongi»ning ukasi – (biz uni shunday ataymiz) «Kamalak» eshittirishining «Shohsupa» radioo'yinini olib boramiz. Respublikamizning turli viloyatlaridan,



shahar va qishloqlaridan qo'ng'iroq qilib bog'langan do'stlarimiz bilan jonli muloqotga kirishamiz. Bu bizga katta zavq bag'ishlaydi.

Orzularim juda mo'l. Ularning hammasi radio bilan bog'liqligini his qilyapman.

«Kelajak tongi» men uchun hayot maktabi vazifasini o'tayapti. Bu damlar bolalik va o'smirlik davrimning eng unutilmas va sermazmun qismiga aylanishi shubhasiz.

Bibimaryam BO'RIXONZODA, 214-maktabning II-sinf o'quvchisi:

– Bu dargohga kelganimga atigi bir yil bo'ldi. Lekin yosh radioboshlovchi tengdoshlarim bilan tezda chiqishib ketdik. Chunki ular juda samimiy, izlanuvchan va ijodkor bolalar. Muharrir aka va opalarimiz yozgan matnlarni katta qiziqish bilan o'qiyamiz. Chunki sahifalar orqali o'zimiz ham ko'p narsalarni o'rganyapmiz. Qiziqarli xabar va lavhalar, ovozli yozuvlarning mag'zini avvalo o'zimiz chaqib, keyin tinglovchilarga yetkazamiz. Bu yerda faqat suxandonlik mahoratini emas, nutq madaniyatini, muomala odobini, qo'yingki, jamiki fazilatlarini o'rganyapmiz.

Bu yerdagi ustozlarimga juda havasim keladi. Ulardek yetuk jurnalist, boshlovchi bo'lishga harakat qilaman.

Nazokat AHMEDOVA, O'zbekiston milliy universiteti qoshidagi akademik-litsey o'quvchisi:

– 4-sinfda o'qib yurgan kezlrimda, «Kichkintoy – shirintoy» eshittirishini o'qirdim. Hozirda esa «O'smir», «Kamalak», «Katta tanaffus» kabi eshittirishlarni ham olib boryapman. O'qish va jamoat ishlarida qo'lga kiritayotgan yutuqlarimda «Kelajak tongi»ning o'rni beqiyos, deb o'ylayman. U menga o'z ustimda ishlashni, maqsad sari dadil qadam tashlashni, eng muhimi, ijod qilishni o'rgatdi.

Bu yil «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofotiga o'z nomzodimni qo'ydim. Tuman miqyosida o'tkazilgan tanlovdan muvaffaqiyatli o'tib, shahar bosqichiga chiqdim. Inson orzulariga erishish yo'lida astoydil intilsa, unga albatta yetishi tayin.

Nodira SULTONOVA, 131-maktabning 8-sinf o'quvchisi:

– Bu yerga avvallari «Kelajak tongi»da, hozir esa «O'smir» eshittirishida boshlovchilik qilayotgan Aziza opamga havas qilib kelganman. Avvallari nutqim ravon emasdi. Fikrlarimni aniq, lo'nda tarzda ifodalay olmasdim. Rejissyorimiz Durdona opamning ko'magi bilan o'z ustimda tinmay ishladim. Bugungi kunda maktabimizda o'tkaziladigan turli kechalar, bayram tadbirlarida faol ishtirok etyapman. She'r o'qishni, g'azal va ruboiylar yodlashni yaxshi ko'raman. Har kuni radioga borishimni o'ylasam, kayfiyatim ko'tarilib, xursand bo'lib ketaman.

Ko'p o'qib, izlanib, ziyarak, bilimdon boshlovchi bo'lishga harakat qilaman.

Alijon QOSIMOV, Toshkent moliya instituti qoshidagi 2-akademik-litsey o'quvchisi:

– Jurnalist opamiz Rohila Yusupova men o'qiyotgan 133-maktabga yozuvga borganilar. Radioboshlovchilikka qiziqishimni payqab bu yerga olib kelganlarida, 8-sinfda o'qirdim. Buning uchun ulardan behad minnatdorman.


Bu yerda ijod qilayotgan har bir jurnalistni fidoyi ustozlarga o'xshataman. Chunki ular bizni o'z farzandlaridek yaxshi ko'rishadi, bilganlarini o'rgatishadi. Yutuqlarimizdan quvonib, kamchiliklarimizni tuzatishga ko'maklashishadi. Ulardan nafaqat suxandonlikni, balki odamiylikni, atrof dagilarga mehrlari, e'tiborli bo'lishni ham o'rganyapmiz.

Feruza JALILOVA suhbatlashdi



VATAN

Sirdaryo suviga yuzimni chaydim,
Amu bo'ylarida chanqog'im qondi.
Vodiylarni kezib, farog'at topdim,
Dilimda Vatanga mehr uyg'ondi.
Kumush polizlarda yorilgan qovun,
Dimoqqa muhrlar muattar hidin.
Men sarxush bo'lganman,
bilsang o'sha kun,
Unutib qo'yganman
g'amning bor-budin.



SIRLARGA YOR BU DUNYO

Kimlargadir jumboqli,
Sirlarga yor bu dunyo.
Kimlargadir ilmoqli,
Qafasdek tor bu dunyo.

G'addorlarga, pastlarga,
Qayg'udir takror dunyo.
Baxt maskani do'stlarga,
Go'zal, betakror dunyo.

Rohatdir kimlar uchun,
Yaxshilarga boy dunyo.
Zolimlarga achchiqdir,
Yomonlarga voy dunyo!

YAXSHI ODAMLAR!

Qo'lingni bergin, munis dugona,
Ijobat bo'lsin orzu yagona.
Na kin bor menda, na biror gina,
Adovatdan yiroq, g'amdan begona.
Inoq bo'laylik, g'animat damlar,
Ko'p bo'lsin deymen, yaxshi odamlar!

Chaqinga o'xshar oniy tiriklik,
Umr bir lahza - oppoq kapalak.
O'zni anglamoq katta buyuklik,
Baxt esa bizni izlagan malak.
Inoq bo'laylik, g'animat damlar,
Ko'p bo'lsin deymen, yaxshi odamlar!

SAODAT

YURTIMIZ O'G'LONLARI

O't chaqnaydi qadam bossa izidan,
Mard yigitlar qaytmaydi hech so'zidan.
Dilda bori balqib turar ko'zidan,
Omon bo'lsin yurtimiz o'g'lonlari,
Ko'ksi qalqon sheryurak posbonlari.

Mamlakatning tinchi uchun bedorlar,
Jahongirlar, Bobur hamda Sardorlar.
Vatan uchun hamma ishga tayyorlar,
Omon bo'lsin yurtimiz o'g'lonlari,
Ko'ksi qalqon sheryurak posbonlari.



Zilola QURBONOVA,
Samarqand viloyati,
Ishtixon tumanidagi
«Xo'jalar» qishlog'i



ORZULARIM

Orzuim osmon qadar,
Baland cho'qqiga yetar.
Qalbimda cheksiz quvonch,
Ertangi kunga ishonch.

Orzu betakror tuyg'u,
Misli oppoq qordir u.
Yangilanib turadi,
Mening baxtim kuladi.

Hayotda komil inson,
Bo'lib yetishsam shu on.
Tuyg'ularim bokira,
Bo'lsam ulug' shoira.

Lolaxon ODILJONOVA,
Sergeli tumanidagi
266-maktabning
8-«V» sinf o'quvchisi

J.K.ROLING

Harry Potter



Roman

VA HIKMATLI TOSH

O'n bir yoshli yetim bolakay Garri Potter xolasining oilasida yashab, haqiqiy sehrgarligini hatto o'zi ham bilmaydi. Lekin kunlardan birida uning nomiga bitilgan maktub bilan ukki uchib keladi va Garri Potterni hayoti butunlay o'zgarib ketadi. U o'zining jodugarlik va sehrgarlik maktabiga qabul qilinganidan xabar topadi hamda ota-onasining sirli o'limi to'g'risida haqiqatni aniqlaydi, natijada esa hikmatli tosh sirini ochishga erishadi.

Ruschadan Gulchehra MUHAMMADJON tarjimasini

Birinci bob

OMON QOLGAN BOLA

Er-u xotin Dursllar Tis ko'chasidagi to'rtinchi uyda yashar edilar va doimo g'ururlanib, Xudoga shukur, tuppa-tuzuk odamlarmiz, deyishardi. Kimlar kim-u, ammo ulardan birorta g'aroyib yoki sirli vaziyatga tushib qolishlarini kutish sira mumkin emasdi. Janob Dursl va xotini har qanday g'aroyibotlar, taajjublanarli hodisalar hamda shunga o'xshash bo'lmag'ur narsalarni unchalik yoqtirmasdilar.

Janob Dursl parmadasta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonani boshqarar edi. U shop mo'ylov va bo'yni juda kalta, semiz kishi edi. Dursl xonimga kelsak, u sariq sochli, bo'yiga nomutanosib ravishda ikki baravar bo'yni nihoyatda uzun, oriqqina edi. Lekin bu nuqsioni unga juda qo'l kelardi, chunki Dursl xonim ko'p vaqtini qo'ni-qo'shnilarini kuzatish hamda ular gapirayotgan gaplarini poylashga sarflardi. Uning bo'yni o'zgaralar devoridan mo'ralash uchun ancha moslashgan edi. Er-u xotin Dursllarning Dadli ismli kichik o'g'ilchasi, ota-onasining fikricha, dunyodagi eng ajoyib bolakay edi.

Dursllar oilasi har jihatdan to'kis yashardi. Biroq, ularning bir siri bor edi. Ular bu sirdan biror-bir kimsa xabar topishidan nihoyatda qo'rqishardi. Basharti Potterlar to'g'risida haqiqat oshkor bo'lguday bo'lsa, ular bilan nima sodir bo'lishini Dursllar hatto tasavvur ham etolmasdilar. Potter xonim Dursl xonimning tug'ishgan egachisi bo'lib, mana, bir necha yillardan beri ular yuz ko'rishmasdilar. Dursl xonim o'zini hech qanday singlisi yo'qdek tutardi, chunki egachisi va uning hech vaqoga arzimasi eri

Dursllarning tamomila aksi edilar.

Dursllar, mabodo, Potterlar Tis ko'chasiga kelib qolgudek bo'lsalar, qo'shnilar nima deyisharkin, degan fikrning o'zidanoq titroqqa tushardilar. Dursllar Potterlarning ham kichkina o'g'ilchasi borligini bilishardi, lekin uni sira ko'rmagandilar. Ularning Dadlisi bunday ota-ona farzandi bilan muloqotda bo'lishini aslo istamasdilar.

Seshanba kuni er-u xotin Dursllar tund va bulutli tongda uyg'onganlarida, voqeamiz aynan shu tongdan boshlanadi, hech narsa, shu jumladan, bulut qoplangan osmon ham yaqin orada butun mamlakat bo'ylab ajoyibot va g'aroyibotlar sodir bo'la boshlanishidan darak bermasdi. Janob Dursl bo'yinbog'lari orasidagi eng yaramas bo'yinbog'ini bog'lar ekan, qandaydir qo'shiqni burni ostida ming'irlab xirgoyi qilardi. Dursl xonim esa baqirgancha qarshilik ko'rsatayotgan Dadlini balandgina stulchasisiga zo'r-bazo'r o'tqazarkan, baxtiyor jilmaygancha eriga eng so'nggi g'iybatlarni so'zlab berardi.


Ulardan hech biri deraza ortida yirikkina ukki uchib o'tganini sezmay qolishdi.

Soat sakkiz yarimda janob Dursl papkasini olib, xotining betidan bir cho'qidi va xayrlashish maqsadida Dadlini o'pishga intildi, biroq, harakati zoye ketdi, o'g'ilcha bot-bot tushib turadigan holatda, g'azabga mingan edi. U stulchasisida o'tirgancha old va orqa tomonga tinimsiz chayqalar, tarelkasidagi bo'tqani changallagancha har yoqqa otib, u bilan devorlarni chaplar edi.

-Voy, o'zimming mittiginam-ey, -uydan chiqayotib, kulgancha zo'rg'a deya oldi janob Dursl.

U mashinasini haydagancha hovlidan chiqib ketdi.

Davomi bor.



«UMID NIHOLLARI» GA

UMID



Qiziqarli o'yin uni sehrlab qo'ygandi. Biroq, quruq o'yin bilan sportda natijaga erishib bo'lmastigini aka-uka yaxshi bilishardi. Shuning uchun Xaylayevlar kitob bilan shug'ullanishni yo'lga qo'yishdi.

Alexinning durdona misoli qadrli partiyalari, Kasparov va Karimovning murosasiz bahslarini tahlil qilib, yosh shaxmatchilarning fikri, zehni tobora teranlashib borardi.

Boyovut tumanidagi 14-kasb-hunar bilim yurtida o'qib yurgan kezlarda, Mamatqul Xaylayev bilim yurtlari o'quvchilari o'rtasida o'tgan Respublika birinchiligida g'olib chiqishga muvaffaq bo'ladi. Bu muvaffaqiyat unga oliy o'quv yurtiga imtiyozli kirish huquqini beradi va qahramonimiz Toshkent Davlat universitetining energetika fakulteti talabasi bo'ladi.

Talabalik paytlarida Mamatqul aka ko'plab musobaqalarda qatnashib, O'zbekiston chempionati 1-liga musobaqalarida bir necha bor sovrindor bo'lishga erishgan.

2001-yil Qirg'izistonning O'sh shahrida, Markaziy Osiyo davlatlaridan 14 nafar shaxmatchi ishtirok etgan Xalqaro turnirda g'oliblikni qo'lga kiritadi.

Bundan tashqari, Mamatqul Xaylayev 1999-yilda Rossiyaning Novokuznetsk shahrida o'tgan musobaqada ham eng yaxshi ko'rsatkichga erishgan.

Ayniqsa, keyingi yillarda qator turnirlarda qatnashib, bilim va tajribasini oshirib kelmoqda.

2007-yil BAAning Abu-Dabi shahrida o'tgan turnirda Mamatqul aka

Sirdaryoda shaxmat murabbiysi Mamatqul Xaylayevni ko'pchilik hurmat qiladi. Chunki bu tinib-tinchimas murabbiy viloyatda mohir «Aql gimnastikachilari»ni tayyorlashga ahd qilgan. Qachon qaramang, uning shogirdlari musobaqalarda yuqori o'rinlar uchun kurashayotgan bo'ladi.

Mamatqul akaning shaxmatni tanlashiga oilaviy muhit sababehi. Uning otasi ham, akalari ham shaxmat shaydolari. Akasi Murodqulning maslahatiga ko'ra, ilk shaxmat to'garagiga borganida, Mamatqul 14 yoshda edi.

9 imkoniyatdan 8 ochko jamg'arib, faxrli 2-o'rindan joy oldi. Bevosita u kishining murabbiylik faoliyatiga nazar salsak, bir necha karra O'zbekiston chempioni Sarvinoz Qurbonboyevani tilga olmasdan, ilojimiz yo'q.

Boyovut tumanining chekka qishlog'idan bo'lgan Sarvinozda shaxmat o'yiniga iqtidori borligini anglagan Mamatqul aka u bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Natijasi esa uzoq kuttirmadi. Sarvinoz tengqurlari o'rtasida tengsizga aylandi. 13 yoshli qizaloq bugun kattalar bilan ham teppa-teng dona suradi, kezi kelganda, yutadi ham.


Mamatqul akaning farzandlari ham otasi izidan borishdi. Katta o'g'li Otabek Xaylayev va qizi Gulnozaxon 2006-yil Qarshi shahrida bo'lgan «Umid nihollari» musobaqasida viloyat terma jamoasining 2-o'rindan munosib ulush qo'shishdi.

Kichik o'g'li, 10 yoshli Elbek Jumanov esa Respublika birinchiligi sovrindori. Mamatqul aka bugun shaxmat bo'yicha Sirdaryo viloyat terma jamoasining bosh murabbiysi sanaladi. Garchi Sirdaryo viloyati elektr tarmoqlari OAJda ishlada, shaxmat o'ynashga har doim vaqt topadi.

Ayni paytda, fidoyi murabbiy yordamchilari Umid Xoliqov, Gennadiy Afanasev, Barot Xaylayev, Karim Jumaqulovlar bilan birga bo'lajak musobaqalarga tayyorlanmoqda. Oldinda yana bir mas'uliyatli dovon turibdi. 2009-yil «Umid nihollari» sport musobaqasi finali Sirdaryo viloyati markazi – Guliston shahrida o'tadi. Mezbon viloyat shaxmatchilari mazkur turnirda

yuqori o'rindan joy olishni bosh maqsad qilishgan.

Ma'mura MADRAHIMOVA



MAKTABDAN SPORT ZALIGA



Sanjar Yunusov 13 yosh. U poytaxtimizdagi 298-maktabda o'qiydi. Sportning suzish, boks, yunon-rum kurashi turlari bilan shug'ullanadi. Oltin medal sohibiga aylangan Sanjar hozirda Langar kompleksida grek-rum kurashi sirlarini ustozlari Rasul aka Galiyevichdan qunt bilan o'rganmoqda.

Murabbiylarning o'tkir nigohi, bo'lajak sportchilarni tez ilg'aydi. Chunki ularni mashqlardagi qiyinchiliklar, mashg'ulotlardagi intizom, sport zalida tinimsiz mehnat doimiy sinovga undaydi.

Sanjar ham murabbiysi Rasul akaning mehrini qozondi. Uch oy deganda, murabbiy uni musobaqalarda qatnashish uchun ro'yxatga kiritdi. Chindan ham murabbiy adashmagan ekan. Ilk musobaqadayoq Sanjarning sport olamidagi muvaffaqiyati ko'z ochdi. O'shanda Rasul akaning shodliklari ichiga sig'may ketdi.

Sanjar uyiga oltin medal bilan qaytganida, oilasidagilar farzandlarining sportni mashaqqatli yo'lida erishgan g'alabasini ko'rib quvonishdi.

Sanjar barcha musobaqalarda qo'li baland kelishini orzu qilib maydonga kirib borar ekan, uning bugungi intilishlari ertaning nurli kelajagidan darak berishi shubhasiz.

Munisa SAID XO'JAYEVA,
poytaxtimizning Hamza tumanidagi
69- maktabning 11-«A» sinf o'quvchisi

«MUTAFAKKIR SHOIR» CHAYNVORDI



1. Alisher Navoiyning besh dostonidan iborat nodir asari.
2. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro tomonidan hokim qilib tayinlanib, 1487-1489-yillarda yashab ijod qilgan shahar.
3. Shoirning 1485-yilda yozgan «Sabbai sayyor» dostoni qahramoni, vafodor yor siymosi.
4. Alisher Navoiy g'azali bilan ijro etiladigan mashhur mumtoz ashulalardan biri.
5. Yosh Alisher tarixnavis alloma, «Zafaroma» nodir asari muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy bilan uchrashib, suhbatiga muyassar bo'lgan Iroqdagi shahar.
6. Alisher Navoiyning «Lisonut-tayr» asaridagi ma'juziy qahramonlardan biri.
7. «Xamsa» dostonlaridan biridagi shoir orzu qilgan adolatparvar qahramon.
8. Alisher Navoiyning «Arbain» asaridagi ruboiydan:
*Onalarning oyog'i ostidadur,
Ravzai jannat-u jinon bog'i.
... bog'i visolin istar esang.
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.*
9. Shoir siymosini ekranda gavalantirgan ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti.
10. Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro hukmdorligi davlati saroyida 1472-1476-yillardagi lavozimi.
11. Shoirning «Hayrat-ul-abror» maqolotlaridan biridagi amaldorning

- afsonaviy oti nomi.
 12. «Xamsa» dostonlaridan birining bosh qahramoni, vafodor ma'shuqa siymosi.
 13. Alisher Navoiy siymosini tasvirlagan O'zbekiston xalq rassomi.
 14. Alisher Navoiy hikmatidan:
*... tarkini bir nafas aylama,
Yana ranj-u g'urbat aylama.*
 15. Adabiy ijod sohasi, she'riyat.
 16. «Farhod va Shirin» dostoni qahramoni, adolatparvar hukmdor ayol siymosi.
 17. Alisher Navoiy g'azali bilan aytiladigan mashhur mumtoz ashula.
 18. «Xamsa» dostonidagi Majnunning asl ismi.
 19. Yosh Alisher 1467-1469-yillarda yashab, zamonasining mashhur olimi Fazlulloh Abullays va boshqa yetuk donishmandlar ustozligida ta'lim olgan shahar.
 20. Rus adibasi Lilya Bat qalamiga mansub Navoiyning hayoti va ijodi yoritilgan «Hayot bo'stoni» qissasi qahramoni.
 21. Alisher Navoiy hikmatidan:
*Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,
Bilgil, so'z sanga amonatur.
Gar ani o'zga yerda ... etsang,
Ul amonatga bul xiyonatdur.*
- MUAMMONOMA**
Endi chaynvord javoblari asosida quyidagi raqamlar juftini (birinchisi javob, ikkinchisi esa harf tartibini anglatadi) taalluqli harflar

bilan almashtirib, muammonomani hal eting. 2-6; 4-4; 20-6; 1-2.
7-4; 3-3; 10-4; 12-1; 13-6; 19-5.
Ulardan adabiyotimizda yaratilgan, mutafakkir shoirning yoshligi haqidagi qissa nomini bilib olasiz. Mazkur asar qaysi ijodkor merosiga mansub ekanligini bilasizmi?

Foziljon ORIPOV tuzdi

OZ-OZ O'RGANIB,
DONO BO'LUR

Dunyo ilmdan iborat. Suv, tuproq, meva-cheva – kimyo; so'zlashish, yozuvlar, kitoblar – tilshunoslik; odob-axloq, tarbiya, insoniylik – pedagogika; harakat – fizika; hisob-kitob – matematika. Ko'rdingmi, bularning bari g'ij-g'ij ilm.

Ilmsiz holda dunyoda ko'r-ko'rona yashashdan yomoni yo'q.

Chaqaloq birdan o'sib-ulg'aymaganidek, ilm ham to'satdan qo'lga kiritilmaydi. Donolar aytganidek, u igna bilan quduq qazigandek asta-sekinlik bilan egallanadi. Bu yo'lda so'rab o'rganishning foydasi katta. Alisher Navoiy bobongiz bu to'g'rida xo'p o'xshatib aytganlar:

*Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.*

Demak, so'ramaslik ham o'ziga xiyonat qilish bilan barobar. Darvoqe, maktablarda ham ayrim o'quvchi tengdoshingiz g'ururi baland kelib, bilmaganini so'ramasdan jim o'tiradi va shu bilan darsni ham o'tkazib yuboradi. Bu kishining o'z-o'ziga eng katta yomonligi hamdir.

«Sizni ulug'likka undaydigan hech bir narsaga e'tiborsiz bo'lmang», deydi Anri-Mari Beyl, ya'ni Stendal nomi bilan mashhur bo'lgan fransuz yozuvchisi. Bilimli odamdan kuchli zot yo'q. Davralarda, yig'inlarda ming-ming odamlarni o'ziga qaratib, ularni ko'nglini olib, savollariga biyron javob bergan olimni ko'rganingizda, o'zingiz ham juda kuchli odam ekan, deya tan berasiz. Amir Temur bobongiz bilimli odamlarni qadrlagan, ustalarga ish topib bergan, olimlar bilan taxtdan tushib suhbatlashgan. Ularni mamlakatning ustunlari deb bilgan va kuchli bilimga ega kishilar haqida shunday degan:

*Bilagi zo'r – birni yiqar,
Bilimi zo'r – mingni.*

Bir tengdoshingiz dehqonning ilmi yo'q-ku, deb aytdi. Bekor gap, eng aqlli, eng bilimdonlardan biri ham dehqon bobongizdir. U yerning yuragini ko'ra oladi. Qachon dalaga suv berishni, qachon o'g'itlashni undan zo'r biladigan zot yo'q. Bitta niholni o'stirish shunchalik qiyin ishni, ishonmasangiz, o'zingiz bir dona gul o'stirib ko'ring, dehqonning qanchalik ilmga ega ekanligini keyin bilasiz.

Qissadan hissa shuki, shunday ulug' zotlar ilm haqida shunchalik arziqli gaplar aytishgan ekan, behudaga emas, demak, faqat ilmgina sizni ham yorug' kelajakka olib boradi. Ilmli bo'ling, dunyo sizga havas qilsin!

NIMA ISH QILADI?

Gazetaga ishga kelgan Anvardan hamkasbi Murod so'radi:

- Seni qaysi lavozimga tayinlashdi?
- Muxbirlikka, – dedi Anvar. Oradan sal o'tmay, u Muroddan:
- Muxbir nima ish qiladi o'zi? – deb so'radi...

YANGICHA USUL

Yo'l haqini yig'ib yurgan chiptachi Jamshiddan:

- Sizda nima ekan? – deb so'radi.
- Uch bekat o'tgandan keyin to'layman,

– dedi Jamshid. Chiptachi avvaliga hayron bo'lganicha, boshqalar bilan muomala qila ketdi. Uch bekat o'tgach, chiptachi Jamshidning yoniga kelib:

– Qani, endi yo'l haqini to'lab qo'ying-chi, – dedi. Jamshid cho'ntagidan oylik yo'l chiptasini olib ko'rsatdi. Chiptachi hayron bo'lib:

– Oylik yo'l chiptangiz bor ekan, nega boya so'raganimda, ko'rsatmadingiz? – dedi.

– Oylik yo'l chiptam o'rtog'im Olimjonda edi. Uning tushishini kutdim-da, – dedi Jamshid «sodda»larcha.

Muzaffar AHMEDOV



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25, 144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Adadi - 58103
Buyurtma N: J 4672

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHIYODGOROV
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA